



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июл

VI-48-85-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Sho'rchi tumani mahalliy budgetining 2022 yil 2-choragi daromadlarining harajatlaridan oshgan qismi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida”gi O'RQ-589-sonli Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman mahalliy budgetining 2022 yilning 2-choragi daromadlarining xarajatlardan oshgan qismi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risida xalq deputatlari Sho'rchi tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy budgetining 2022 yil 2-choragi daromadlarining harajatlardan oshgan qismi mablag'lari 988,2 mln.so'm (to'qqiz yuz sakson sakkiz million ikki yuz ming) so'mni tashkil qilgan, ushbu mablag'lardan quyidagi yo'naliishlarga ajratilsin:

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan “Yoshlar daftari” jamg'armasiga 148 000 000 so'm;
- “Ayollar daftari”ga kiritilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan “Ayollar daftari” jamg'armasiga 324 000 000 so'm;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sun qarorida 2021 yil 1 iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun 30 (foizi) 296 400 000 so'm;
- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi mahallalarga xo'jaliklararo ichki yo'llarni toshlash uchun 100 000 000 so'm;

- tuman mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limiga SHFY va MFYlarning axborot va kommunikatsiya xizmatlari uchun 32 700 000 so‘m;

- tuman mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘ining nuroniyalar masalalari bo‘yicha maslahatchisiga kotib-ish yurituvchisining 7-oylik ish haqi va ish haqiga ajratma xarajatlari uchun 9 100 000 so‘m;

- tuman hokimligiga ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish viloyat hududiy bo‘limi xuzuridagi Sho‘rchi tumani “Ijtimoiy moslashtiruv” xonasi ijara to‘lovi uchun 23 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga axborot va kommunikatsiya xizmatlari xarajatlari uchun 20 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga xizmat avtomashinalariga ehtiyoj qismlar xarid qilish xarajatlari uchun 30 700 000 so‘m;

- tuman hokimligiga o‘qitish xarajatlari uchun 4 300 000 so‘m;

3. Tuman budgetining qo‘srimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘larni ajratish uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

4. Mahalliy budgetning qo‘srimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budgetining qo‘srimcha manbalari tuman budgeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish harajatlari uchun yo‘naltirishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman budgetining 2022-yilning har choragida daromadlarining harajatlaridan oshgan qismi mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman

hokimligi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo‘ranov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi**



Xudoyberganov B.X